

№ 5102**2025 yil «20» «may»**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-son Farmoni hamda 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son Farmoni bilan belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, bankda ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini baholashga qaratilgan “Ochiqlik indeksi”dagi ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilash maqsadida:

1. “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo‘yicha metodika”da ko‘rsatib o‘tilgan baholash indikatorlari talablariga ko‘ra “Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirish lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar”ni o‘z vaqtida va to‘liq joylashtirib borilishi uchun Bosh bankning tegishli mas’ul tarkibiy bo‘linmalari ushbu Farmoyishning 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8- ilovalari bilan tasdiqlansin.

Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar va ular bilan ishlashda mas’ul tarkibiy bo‘linmalar ro‘yxati 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Barcha joylashtirilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar (rahbariyat murojaatlari, qonunchilik hujjatlari va lozim bo‘lgan ichki me’yoriy hujjatlar, tadbirlar, matbuot anjumanlari, shu jumladan keg jamoatchilik va OAV ishtirokida o‘tkazilgan tadbirlar, so‘rovnomalar, targ‘ibot materiallari va bank tomonidan bildirilgan rasmiy munosabatlar bundan mustasno) bankning Axborot xizmati, Yuridik departamenti bilan kelishgan holda, Boshqaruv Raisining nazorat qiluvchi o‘rinbosari (Biznes, Moliya, Risk bosh direktori)ning ruxsati olingandan keyin mas’ul tarkibiy bo‘linmalar tomonidan joylashtirilishi belgilansin.

3. “Ochiqlik indeksi”ga ma’lumotlarni lozim darajada, sifatli, to‘liq va o‘z vaqtida joylashtirib borilishi uchun ushbu Farmoyish bilan tasdiqlangan ilovalarda ko‘rsatilgan bankning tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari shaxsan ma’sul ekanligi belgilansin. Bunda joylashtirib borilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar o‘z vaqtida va lozim darajada biriktirilmagan hollarda ma’sul tarkibiy bo‘linma rahbarlari va ma’sul xodimlarining KPI ko‘rsatkichlari bajarilishiga ta’sir qilishi e’tiborga olinsin.

4. Marketing departamenti (A.Majidov), Axborot texnologiyalari departamenti (A.Kenjaev) zimmasiga tarkibiy bo‘linmalar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni rasmiy veb-sayt va (yoki) “Ochiq ma’lumotlar portali”ga joylashtirib borilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur Farmoyish qabul qilinishi munosabati bilan Bank Boshqaruvi Raisining 2023-yil 19-dekabrdagi 5447-sonli Farmoyishi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur Farmoyish ijrosini nazorat qilish Boshqaruv Raisi o‘rinbosarlari va Blok rahbarlari zimmasiga yuklatilsin.

**Boshqaruv Raisining
birinchi o‘rinbosari:**



A.Ergashev

kelishuvchilar: A.Kenjayeov, B.Bozarov, J.Maksudov, A.Madjidov, Sh.Ismoilov

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=rL31wG99&id=2766cbec-c403-45fd-994c-5157f4574f4d>